FARG‘ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 28-noyabr | 246-11-151-Q/24 | Oltiariq tuman hokimligi

Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 614-11-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-198-son Farmoni hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 614-11-0-Q/24-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 614-11-0-Q/24-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni ijrosi haqida”gi qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 6-noyabrdagi 588-11-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Quyidagilar:

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirib boruvchi viloyat Ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni ijrosini ta’minlovchi tuman (shahar) larning namunaviy Ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Xatlov jarayonlari yakunlangan mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi namunaviy Ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (A.Ziyavitdinov), shahar va tuman hokimlariga:

tasdiqlangan reja - jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlariga jalb etilgan mas’ul xodimlarni ko‘chmas mulk obyektlariga kirish uchun sharoit yaratish, o‘lchov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga, ularning xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashishligi;

fuqarolar tomonidan o‘lchov ishlarini amalga oshirishga qarshilik ko‘rsatish holatlarida ularga qonuniy tushuntirishlar bergan holda xatlovga jalb etilgan mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatishligi;

egasi aniqlanmagan ko‘chmas mulk obyektlarining egalariga oid ma’lumotlarga aniqlik kiritishga ko‘maklashishligi;

mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari va ko‘cha, mahalla faollarini jalb etgan holda, joylarda tashkil etiladigan sayyor qabullarda, uchrashuvlarda, ommaviy tadbirlarda fuqarolarga qonunning mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot - tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni ijrosini ta’minlovchi tumanning namunaviy Ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

Xatlov jarayonlari yakunlangan mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi namunaviy Ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Gafurov, Kadastr agentligi tuman bo‘limi (U.Ahmadaliyev) har oy yakuni bilan tasdiqlangan reja – jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlari holatini tanqidiy tahlil etgan holda tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (A.Xonkeldiyev) ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlari orqali tasdiqlangan reja - jadval asosida mahalla

fuqarolar yig‘inlarida o‘tkaziladigan xatlov jarayonlarini olib borilishini muntazam ravishda yoritib borilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Gafurov zimmasiga yuklansin.

Oltiariq tumani hokimi **Sh.Turdaliyev**

Oltiariq tuman hokimining
2024-yil 28-noyabrdagi
246-11-151-Q/24-son qaroriga
1-ilova

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni ijrosini ta’minlovchi tuman ishchi guruhi
TARKIBI

№	F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi
1	Sh.Turdaliyev	Tuman hokimi 1-sektor rahbari, **ishchi guruh rahbari**
2	R.Tillayev	Tuman prokurori 2-sektor rahbari, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
3	I.Sotvoldiyev	Tuman IIB boshlig‘i 3-sektor rahbari, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
4	I.Sultonov	Tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i 4-sektor rahbari, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
Ishchi guruh a’zolari		
5	U.Ahmadaliyev	Kadastr Agentligi Oltiariq tuman bo‘limi boshlig‘i
6	I.Gafurov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
7	A.Yo‘ldoshev	Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i
8	R.Hamdamov	O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Oltiariq tumani bo‘limi raisi
9	U.Bozorov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
10	E.Xolmurodov	O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman kengashi raisi
11	F.Abdulatipov	Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
12	U.Mirzamuhammedov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
13	Lavozimi bo‘yicha	Tuman sektor kotiblari
14	X.Xoshimov	Kadastrlar palatasi Oltiariq tumani filiali boshlig‘i, **ishchi guruh kotibi**

Izox: ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi

Oltiariq tuman hokimining
2024-yil 28-noyabrdagi
246-11-151-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Xatlov jarayonlari yakunlangan mahallalar fuqarolar yig‘ini bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi

NAMUNAVIY ISHCHI GURUH TARKIBI

№	F.I.Sh	Ish joyi va lavozimi
1		Mahlalla fuqarolar yig‘ini raisi
2		Mahalla proflaktika inspektori
3		Mahalla davlat soliq inspektori
4		Mahalladagi hokim yordamchisi
5		Kadastr yig‘ma jildlarini tayyorlash sho‘basi kadastr muhandisi
6		Mulkdor yoki foydalanuvchi